



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**TOSHKENT VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2025- YIL YANVAR OYI
(DASTLABKI MA'LUMOT)**

**Tel.: 71-202-86-66
www.toshvilstat.uz**



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



(2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6323 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 396 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 6,3 %) Chirchiq shahriga, 176 tasi (2,8 %) Yangiyo'l shahriga, 920 tasi (14,6 %) Zangiota tumaniga, 565 tasi (8,9 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2025- yil 1- fevral holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, %da
Jami:	6323	69	100,0
Nurafshon sh	135	1	2,1
Olmalik sh	237	1	3,7
Angren sh	323	4	5,1
Bekobod sh	144	3	2,3
Ohangaron sh	159	2	2,5
Chirchiq sh	396	0	6,3
Yangiyo'l sh	176	1	2,8
Oqqo'rg'on	127	2	2,0
Ohangaron	227	2	3,6
Bekobod	146	0	2,3
Bo'stonliq	224	0	3,5
Bo'ka	93	2	1,5
Quyichirchiq	218	3	3,4
Zangiota	920	12	14,6
Yuqori Chirchiq	395	2	6,2
Qibray	565	8	8,9
Parkent	398	6	6,3
Piskent	114	3	1,8
O'rta Chirchiq	259	4	4,1
Chinoz	172	2	2,7
Yangiyo'l	339	30	5,4
Toshkent	556	59	8,8

Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 8235,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 98,9 % ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Toshkent viloyatida 2025- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2673,7 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.





Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 2025- yilda 6460,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 78,5 % ni tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar- oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 450,8 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 % ini tashkil etdi.



Yanvar

2023-y	313,4 mlrd. so 'm
2024-y	356,4 mlrd. so 'm
2025-y	450,8 mlrd. so 'm

FHI, % da

2023-y	107,8 %
2024-y	96,9 %
2025-y	111,3 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **6460,9** mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **99,5 %** ini tashkil etdi.

Yanvar

2023-y.	4771,1 mlrd so 'm
2024-y.	5663,7 mlrd so 'm
2025-y	6460,9 mlrd so 'm

FHI, % da

2023-y.	82,6 %
2024-y.	109,1 %
2025-y	99,5 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

O'simlik yog'i (tozalangan)			Pishloq va tvorog			Yumshoq bug'doy va spelta uni		
2025	→	148,8	2025	→	11.3	2025	→	83.0
2024	→	5,2m	2024	→	2.4	2024	→	46.3
2023	→	0.0	2023	→	42.0	2023	→	91.6
Pivo			Aroq ming litr (100 % spirt)			Uzum vinosi		
2025	→	81.9	2025	→	165.2	2025	→	2.4
2024	→	151.7	2024	→	143.6	2024	→	28.6
2023	→	80.8	2023	→	62.1	2023	→	61.1
Portlandsement			Paxta chigiti			Kalava ip		
2025	→	105,9	2025	→	67,2	2025	→	137,5
2024	→	2,4m	2024	→	0,0	2024	→	83,7
2023	→	16,5	2023	→	103,3	2023	→	40,6
Ammoniy sulfat			Ammoniy nitrat			Etil spirti		
2025	→	0,0	2025	→	42,2	2025	→	84,6
2024	→	0,0	2024	→	0,0	2024	→	100,0
2023	→	18,1	2023	→	64,9	2023	→	100,0

2025- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3,8 ming tonna o'simlik yog'i (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 148,8 %ni tashkil etgan), 0,3 ming tonna suyultirilgan sut (153,8 % ni) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	12,9	10,7	-2,2
Shakar, ming t.	14,3	20,9	6,6
Paxta tolasi ming t.	2,5	1,8	-0,7
Portlandsement, ming t.	220,3	233,3	13,0


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 6,5% (2024 yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 163,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 8,2 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 88,9 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 118,5 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,6 %ni (2024- yilning yanvar oyida – 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 4,9 % (4,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 48,6 % (50,4 %) va quyi texnologiyali – 21,9 % (20,3 %)ni tashkil etdi.





Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2025- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 3216,5 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 39,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 86,8 % tashkil etgan.

2024- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 3308,8 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 44,0 % ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,9 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2025- yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 118,2 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 256,8 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 144,5 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2025- yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 %ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,9 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 933,3 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 86,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 210,6 mlrd so'mni tashkil etdi.


2024- yilning yanvar oyida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 163,1 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2025- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 87,5 % ni tashkil etgan holda ishlab chiqarish hajmi 382,7 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 130,3 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 91,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 284,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 129,5 % ni tashkil etgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 101,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 216,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3% ni fizik hajm indeksi esa 61,8 % ni tashkil etgan.




Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 79,7% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni fizik hajm indeksi esa 23,1 % ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 172,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 179,4 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni fizik hajm indeksi esa 123,5 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 101,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 170,3 mlrd so'mni tashkiletdi.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni fizik hajm indeksi esa 77,1 % ni tashkil etgan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 203,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 140,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 202,4 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %, fizik hajm indeksi 165,2% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 13,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni fizik hajm indeksi esa 544,7 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2025- yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1291,3 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,7 % ni) tashkil etadi.


2025- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,5% ni tashkil etdi .



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt s	1913,7	1862,9	-50,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	358,3	369,9	11,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,4 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	6,9	6,1	-0,8
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	1,5	1,1	-0,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 6,1 mlrd so'm yoki 13,0 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 1,1 mlrd so'm va 40,8 % ga ko'paygan.




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1286,6 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,1 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2025- yil yanvar



2024- yil yanvar



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd soʻm)da

2025- yil yanvar



2024- yil yanvar




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi

2025- yilning yanvar oyida

(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1029,1 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 12,5 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat
mahsulotlari hajmidagi
ulushi,
% da**



**Kichik biznes subyektlari
tomonidan ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari hajmi
(mlrd soʻm)**

